https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

“TIQXMMI” MTU, 2-kurs talabasi
I.A.Ibrohimova
iforaibrohimova2006@gmail.com
Ilmiy rahbar: “TIQXMMI” MTU o`qituvchi
M.O.Iskandarov

“UNIVERSITET UCHUN RAQAMLI SUKUK VA VAQF PLATFORMASI” LOYIHASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, ta’lim sifati va ilmiy infratuzilmani rivojlantirishda jamoatchilik asosidagi raqamli moliyalashtirish platformasini joriy etish masalalari yoritiladi. Tadqiqotda universitet atrofida shakllangan bitiruvchilar, homiylar va investorlar hamjamiyati orqali barqaror mablag‘ jalb qilish, bu mablag`larni bizneslarga yo`naltirib bizneslardan olingan foydani universitetning xayrli yoki kerakli xarajatlariga sarf qilish modeli taklif etiladi. Platforma doimiy xayriya, investitsion instrumentlar va shaffof monitoring mexanizmlarini o‘zida mujassam etgan holda oliy ta’lim tizimida moliyaviy inklyuziya va ishonchni oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Islom moliyasi, vaqf, sukuk, obligatsiya, oliy ta’lim, moliyaviy barqarorlik, raqamli platforma, jamoatchilik moliyalashtiruvi, investitsiya.

Kirish

Muammo va uning dolzarbligi

O‘zbekiston ta’lim tizimida ko‘pchilik Universitetlarda baza yetishmovchiligi, o‘quv jihozlari eskiligi va doimiy moliyaviy manba tanqisligi sababli sifatli ta’limni to‘liq ta’minlay olmaydi. Ko‘p ta’lim muassasalari homiylikka tayanadi, ammo homiylikning asosiy muammosi – uzluksiz emasligi. Bir martalik ehsonlar ta’lim muassasalarining doimiy va tizimli rivojlanishini ta'minlamaydi.

Dunyo tajribasida, xususan Malayziya, Turkiya, Singapur va hattoki AQSHda ham vaqf asosida barqaror moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi keng qo‘llanadi va juda

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

yaxshi natija beradi. Ammo O‘zbekistonda ta’lim yo‘nalishida raqamli vaqf tizimi keng joriy qilinmagan.Shu sababli raqamli, ochiq va shaffof tarzda ishlaydigan ta’lim vaqf platformasi yaratish dolzarbdir.

Universitet	2018 vaqf	2022 vaqf	Umumiy
HARVARD	$39,2 mlrd	$50,9 mlrd	$90,1mlrd
YALE	$29,4 mlrd	$40,7 mlrd	$70,1 mlrd
STANFORD	$26,5 mlrd	$36,5 mlrd	$63,0 mlrd
PRINCETON	$25,9 mlrd	$35,8 mlrd	$61,7mlrd
UPENN	$13,4 mlrd	$21,0 mlrd	$34,4mlrd
NORTHWESTER	$11,1 mlrd	$14,4 mlrd	$25,5mlrd
COLUMBIA	$10,5 mlrd	$ 13,3 mlrd	$23,8mlrd
CORNELL	$6,9 mlrd	$9,8 mlrd	$16,7mlrd
DARTMOUTH	$5,5 mlrd	$8,1 mlrd	$13,6mlrd


[1]

Vaqf nima?

“Vaqf” so`zi lug`atda “to`xtatish”, “tutib qolish” ma`nosini anglatadi. Shariatda esa molning aslini ushlab turib, foydasini Allohga qurbat hosil qilish uchun sarflashga aytiladi. Vaqf qilingan narsadan keladigan foyda vaqf qiluvchi belgilagan shar`iy maqsad uchun sarf qilinadi va savobi vaqf qiluvchiga bo`ladi. Vaqf qilingan narsa sotilmaydi, hadya qilinmaydi va me`ros qoldirilmaydi. Vaqf qiluvchi shaxs bir shart qo`ysa va bus hart shariatga xilof bo`lmasa, unga amal qilish lozim bo`ladi.

Vaqf sahih bo`lishi uchun shartlar:

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026



O‘z mulkini vaqf qiluvchi inson quyidagi shartlarni qo‘yishi mumkin:

1. Vaqf mulkidan faqat bir toifa insonlar foydalanishini shart qilish (masalan, bu binodan faqat talabalar foydalansin, kabi);
2. Vaqf mulkidan foydalanishda bir toifani ikkinchi toifadan ustun ko‘rishni shart qilish (masalan, avval talabalarga, ulardan keyin shifokorlarga sarflansin, kabi);
3. Vaqfga haqdor bo‘luvchida bir sifatning bo‘lishini shart qilish;
4. Vaqfga haqdor bo‘luvchida bir sifatning bo‘lmasligini shart qilish;
5. Vaqfga nazoratchilikni shart qilish va boshqalar.

Yuqoridagi kabi shartlar Qur’on va Sunnatga xilof bo‘lmasa, ularga amal qilish lozim bo‘ladi.

Vaqf lafzining o‘zi bilanoq lozim bo‘luvchi aqddir, uni buzish joiz bo‘lmaydi.

Vaqf 2 turga bo`linadi. [2]

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026


Mol-mulkka asoslangan

- vaqf qiluvchi o`z mulkini vaqf mulkiga o`tkazadi va u mulkdan endi xalq yoki vaqf qiluvchi shaxs belgilagan toifadagi insonlar foyda olishadi.

Naqd pulga asoslangan

- Vaqf qiluvchi naqd pulni vaqf uchun deb beradi va bu pulning asli saqlangan holda investitsiya qilinib foydasi ehson yoki xayrli ishlarga sarflanadi.

Vaqf faoliyati davomida xizmat ko`rsatuvchi subyektlar:



Sukuk nima?

Sukuk qimmatli qog‘ozlarning islomiy tamoyillarga mos keluvchi turi bo‘lib, mablag‘larni jalb etishda va investitsiya kiritishda obligatsiyalarga ekvivalent sifatida foydalaniladi. G‘arb olim va mutaxassislari sukukni obligatsiyaning shariatga mos keluvchi bir turi sifatida talqin qilishadi. Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyoda uni qimmatli qog‘ozlarning alohida turi ekanligini ta’kidlashadi. Sukuk – ("sakk"ning ko‘pligi, arab tilidan akt, hujjat, chek investitsion faoliyat yoki uning aktiviga nisbatan egalik huquqidagi ulushini ko‘rsatuvchi shariat


https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

tamoyillariga asoslangan emissiyaviy qimmatli qog‘oz bo‘lib, turiga ko‘ra foyda va zararga sherikchilikni ifodalaydi, qaytarilishi (to‘lanishi, so‘ndirilishi) va foyda darajasi loyiha xatariga asoslanadi.

Soddaroq qilib aytganda, sukuklar oddiy aksiya va obligatsiyalarning ayrim jihatlarini o‘zida mujassamlashtirgan islom qimmatli qog‘ozi hisoblanadi. Sukuk chiqaruvchi uni sarmoyadorlarga sotadi va undan tushgan pul mablag‘larini ma’lum bir loyihani moliyalashtirishga yo‘naltiradi. Sarmoyador va sukuk chiqaruvchi ushbu loyiha foydasidan manfaatdor hisoblanadi va sof foyda avvaldan belgilangan ulushda taqsimlanadi.

Sukuk – islom dini qonun-qoidalariga mos keluvchi g‘arb moliyasidagi obligatsiyalarga o‘xshash islom moliya sertifikatidir. Farqi shuki, obligatsiya qarz munosabatlarini ifodalasa, sukuk aktivga egalikni ifodalaydi[3]

Sukuk emissiyasi va muomala davrida ishtirok etuvchi muassasalar tarkibi:



https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Sukukning boshqa an’anaviy qimmatli qog‘ozlardan farqlanuvchi xususiyatlaridan biri SPV va shariat kengashi institutlarining ishtirok etishidir. Ushbu ikki institut sukuk faoliyatida muhim ahamiyat kasb etib, barcha bosqichlarda murakkabliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi.[4]

SPV (special purpose vehicle) – maxsus maqsadli korxona yoki ixtisoslashgan loyiha kompaniyasi bo‘lib, ma’lum loyiha yoki biznes rejasini amalga oshirish va boshqarish uchun tashkil etilgan korxona. [5]

Bizning loyihamiz aynan naqd pulga asoslangan vaqf turini va sukukni o`z ichiga oladi.[6] Qisqa qilib aytganda, Universitetimiz vaqf fondiga mablag` kelib tushadi, bu mablag` esa mushoraka yoki muzoraba shartnomalari orqali biznes loyihalariga yo`naltiriladi. Tushgan daromad esa universitetda ta`lim sifatini yanada oshirishga yo`naltiriladi. Sukukdan olingan foyda ham doimiy vaqf fondiga yo`naltirib turiladi.

Tadqiqot usullari

Tadqiqot dizayni

Tadqiqotda konseptual model va moliyaviy prognozlash usullaridan foydalanildi. Universitet ehtiyojlari asosida jamoatchilik va investorlar ishtirokida ishlovchi raqamli platforma modeli ishlab chiqildi.

Ma’lumotlar va taxminlar

Hisob-kitoblar quyidagi taxminlarga asoslandi:

1-yilda platformada 50 nafar ishtirokchi;

2-yilda 100 nafar ishtirokchi;

3-yilda 140 nafar ishtirokchi;

har bir ishtirokchining yillik o‘rtacha badali – 5 000 000 so‘m;

mablag‘larning bir qismi uzoq muddatli investitsion instrumentlarga yo‘naltiriladi.

Baholash mezonlari

Platformaning samaradorligi quyidagi ko‘rsatkichlar orqali baholandi:

-jalb qilingan umumiy mablag‘ hajmi;

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

-investitsiya orqali olingan qo‘shimcha daromad;

-moddiy-texnik baza rivoji;

-ta’lim va ilmiy faoliyatga ta’siri.

Loyiha maqsadi

Ta’lim muassasalariga doimiy, uzluksiz va barqaror moliyaviy qo‘llab-quvvatlovchi raqamli vaqf platformasi yaratish; ko`ngillilar, talabalar, Universitet va davlat idoralari o‘rtasida shaffof, avtomatlashtirilgan tizim tashkil qilish.

Loyiha yangiligi va innovatsion jihati

O‘zbekistonda ta’lim sohasida birinchi raqamli vaqf platformasi yaratish.

Ko`ngillilar tomonidan berilgan mablag‘lar sarflanmaydi, aksincha investitsiya qilinadi (islomiy moliya instrumentlari orqali — sukuk, murabaha va boshqalar).

Platforma AI asosida ehtiyojlarni aniqlaydi.

Har bir vaqf beruvchi o‘z vaqfini onlayn real vaqt monitoringini ko‘radi.

Ta'lim muassasalari avtomatik ravishda reyting asosida moliyalanadi.

Shaxsiy kabinet orqali:

Vaqf beruvchilar daromadni ko‘radi,

Maktablar o‘z ehtiyojini yuklaydi,

Sarf-harajatlar blockchainga ulanadi (o‘zgarmas shaffoflik uchun).

Loyiha vazifalari

1.Raqamli platforma namunasini ishlab chiqish.

2.Universitetlarning real ehtiyojlar bazasini yaratish.

3.Vaqf uchun qulay to‘lov tizimini integratsiya qilish.

4.Mablag‘larni islomiy moliya asosida investitsiya qilish mexanizmini yaratish.

5.Platforma ichida ta’lim muassasalari uchun shaffof reyting tizimi joriy etish.

6.Har oy avtomatik moliyaviy hisobotlar generatsiyasi.

Metodologiyaning umumiy ko`rinishi:

-Tahliliy bosqich

-Ta’lim muassasalarining resurs darajasini o‘rganish.

-Vaqf beruvchilarning xatti-harakat psixologiyasini tahlil qilish.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

-Islomiy moliya qoidalariga mos investitsiya mexanizmini ishlab chiqish.

Texnik bosqich

1. Vaqf mablag`i platformaga vaqf qiluvchi nomidan o`tkaziladi yoki sukukni sotib oluvchi platformaga ro‘yxatdan o‘tadi.

2. AI modeli sukuk uchun riskini baholaydi.

3. Islom moliyasi shartlariga to`g`ri kelishi tasdiqlanadi

4. Platforma mikro-sukuk chiqaradi

5. Investorlar 100 000 so‘mdan boshlab sotib oladi

6. Mablag‘ biznesga o‘tadi

7. Foyda ma`lum vaqt yakunida taqsimlanadi

8. Platforma qnchadir masalan 0.02% komissiya oladi

9. platforma foydasi vaqfga o`tkaziladi.

10. sukukdan kelgan daromad ham foyda taqsimotidan so`ng Universitetning vaqf fondiga o`tkaziladi

iqtisodiy model

Foyda taqsimoti:

Investor: 70%

Biznes loyiha : 30%

Platforma: 0.02% komissiya har bir tranzaksiya uchun

Natijalar

Ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik

Yangi ish o‘rinlari

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Universitet davlat budjetidan emas, o`zini o`zi moliyalashtiriladi

Halol moliya ekotizimi shakllanadi

Yoshlar uchun qulay investitsiya muhiti

Innovatsionlik darajasi

Loyiha quyidagi yangiliklar bilan boshqa loyihalardan farq qiladi:

Shariatga mos raqamli investitsiya tizimi

Blockchain asosidagi shaffoflik

AI yordamida risklarni avtomatik boshqarish

Platforma interfeysi:

1. Universitet“Vaqf ” bo`limi

Vaqf summasini kiritish

Vaqf foydasi aynan qaysi bo`lim uchun sarflanishi:

O`qituvchi va olimlar uchun

Yotoqxona uchun

Ta`lim sifati uchun

Talabalar loyihasi uchun

Moddiy texnik baza uchun

2.“Invest” bo‘limi

Loyiha nomi

Minimal kirish puli

Risk darajasi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Yillik kutilayotgan rentabellik

2. “My Sukuk” bo‘limi

Foyda grafigi

Token balans

Loyihaning daromadlari

3. “AI Rating” bo‘limi

Risk ko`rsatkichi


O‘tgan daromad tarixi

Loyiha joriy etish bosqichlari

1-bosqich	Tadqiqot, hujjatlar
2-bosqich	dastur asosini islom moliyasi shartnomalari bilan uyg`unligi
3-bosqich	AI Risk Model namunasi
4-bosqich	Mobil ilova namunasi
5-bosqich	Sinov
6-bosqich	Keng joriy etish

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Moliyaviy model



Muhokama

Kutilyotgan natijalar

1 yil ichida Universitetning muntazam moliyaviy manbasi shakllanadi.

Vaqf uchun ko`ngillilar soni 500 dan oshadi.

Ta’lim sifati va infratuzilmasi real ravishda yaxshilanadi.

Shaffof, ishonchli va barqaror moliyaviy tizim shakllanadi.

Loyiha ijtimoiy ahamiyati

O‘zbekistonning strategik maqsadlari — yoshlar ma’naviyati, ma’rifati va raqobatbardosh ta’lim tizimi rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ta’limda korrupsion xavflarni kamaytiradi.

Maktablar va donorlar o‘rtasida ishonchni kuchaytiradi.

Uzoq muddatli barqaror ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shadi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Ta’lim sohasida raqamli vaqf texnologiyasi O‘zbekistonda joriy etilmagan.

Platforma islomiy moliya + raqamli boshqaruv + blockchain monitoringi integratsiyasi orqali bitta tizimda ishlaydi.

Vaqf daromadining har bir tiyini investitsiya orqali ko‘payadi — bu hozirgi mavjud hamma platformalardan tubdan farq qiladi.

Nima uchun aynan bizning universitet?

“TIQXMMI” MTUni Markaziy Osiyodagi yetakchi reytingi — Loyiha uchun strategik ustunlik

“TIQXMMI” MTUning Markaziy Osiyoda yetakchi OTM sifatida e’tirof etilgani platformaga bo‘lgan ishonchni keskin oshiradi.

1. Tashqi investorlar uchun jozibadorlik oshadi

Yetakchi OTMga quyidagilar qiziqadi:

Islom moliyasi fondlari

O‘zbekistondagi yirik banklar (halal moliya yo‘nalishda)

Xalqaro rivojlanish institutlari (IsDB, ICD, ICIEC)

Saudiya, Turkiya, Malayziya, BAA investorlar

Bu institutlar halal, barqaror va shaffof loyihalarga kirishni xohlaydi.

2. Bitiruvchilarning ishonchi yuqori bo‘ladi

Avvalgi avlod bitiruvchilar — 40–60 yoshdagi insonlar:

-barqaror ishga ega

-iqtisodiy imkoniyati kuchli

-universitet qadriyatlariga sodiq.

Ular uchun platformaga vaqf qilish — qadriyat, minnatdorlik va savob sanaladi.

Bu esa vaqf jamg‘armasi uchun barqaror, o‘sib boruvchi manba bo‘ladi.

3. Universitet qadriyatlari — loyiha poydevori

“TIQXMMI”MTU qadriyatlari: ilm, mehnat, halollik,jamiyatga xizmat qilish,inson kapitalini rivojlantirish

Vaqf va sukukning maqsadi aynan shularni qo‘llab-quvvatlash: Ilmdan savob,jamiyat uchun foyda, halol daromad.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Demak, loyiha universitet ruhi bilan to`laqonli mos.

“TIQXMMI”MTU Vaqf Fondining uch asosiy manbasi

Aytaylik,

1. Universitetdagi va bitirib ketgan talabalarning yoki moliyaviy daromadi yetarli o`qituvchilarning savob maqsadida daromadining bir qismini vaqf fondlariga berish orqali yillik vaqflari.

2. Kafelar, kutubxonalar, parkovkalardan tushum

Kampus ichidagi maydonlar ijaraga beriladi.

Bu ham vaqf daromadiga aylantiriladi.

3.Halal loyihalarga sukuk investitsiyasi

Sukukdan kelgan foydaning 25–40% universitet jamg‘armasiga tushadi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

1



Universitet ehtiyoji aniqlanadi.

Masalan, texnik baza, stipendiya,

Infratuzilma, yotoqxona.

2



Platforma yaratiladi.

- IT tizimi

-Shariat kengashi

Huquqiy struktura

3

-



Vaqf va sukuk mahsulotlari shakl-

lantiriladi.

-Doimiy vaqf

- Bir martalik vaqf


4



Homiylar va investorlar platformaga ulanadi:

- Bitiruvchilar
- Tadbirkorlar
- Tashqi investorlar
- Professorlar va jamoa

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026



Xulosa

Xulosa qilib aytganda, jamoatchilik asosida ishlovchi raqamli moliyalashtirish platformasi oliy ta’lim muassasalari uchun muqobil va barqaror moliyaviy mexanizm hisoblanadi. Ushbu model nafaqat moliyaviy muammolarni hal etadi, balki universitet, bitiruvchilar va investorlar o‘rtasida mustahkam hamkorlik

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

muhitini yaratadi. Natijada ta’lim sifati, ilmiy salohiyat va ijtimoiy mas’uliyat uyg‘unlashgan holda rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.https://www.harvard.edu/about/endowment/

2.https://islommoliyasi.uz/uz/tag/vaqf/

3.https://islommoliyasi.uz/uz/1027/

4. Islomiy banklar va bank tizimi. Falsafasi, tamoyillari va amaliyoti. “O`zbekiston” nashriyoti 2014

5. Khan, F. Fintech and Financial Inclusion. - Journal of Sustainable Financial, 2021.

6. OECD. Innovative Funding Higher Education: International Perspectives. - Washington DC, 2017